



KAMOLOT SARI

23-SON

- **TILSHUNOSLIK**
- **ADABIYOTSHUNOSLIK**
- **TARIX**
- **FALSAFA**
- **XALQARO MUNOSABATLAR**
- **IQTISODIYOT**



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lawrence Pintak. (2009). Gaza: Of media wars and borderless journalism - Arab Media & Society.
2. Houda Abdallah Al Balushi. (2024). Exploring Public Engagement in Al Jazeera Arabic's Twitter Comment Sections: A Case Study of the News Race Programme.
3. Academic Research about Al Jazeera PhDs, Masters, Books & Research Papers 1996 – 2012, Sara Nasr Ezzeddine Abdelmoula.
4. David Pollock. (2011). Aljazeera: One Organization, Two Messages by David Pollock Apr 28, 2011.
5. Rania Farouk El Jammal. Al Jazeera Evaluation within the arab revolutions.
6. Tal Samuel- Azran. (2023). Empirical support for the Al-Jazeera Effect notion: Al-Jazeera's Twitter <https://cris.bgu.ac.il/en/publications/empirical-support-for-the-al-jazeera-effect-notion-al-jazeeras-tw-2>
7. Shahira S, Fahmy Mohammed Al Emad. Al-Jazeera vs Al-Jazeera: A comparison of the network's English and Arabic online coverage of the US/Al Qaeda conflict.
8. Rumsfeld blames Aljazeera over Iraq <https://www.aljazeera.com/news/2005/6/4/rumsfeld-blames-aljazeera-over-iraq>
9. Diana Galeeva QATAR Practice of rented power.

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH ISTIQBOLLARI

Sevinch RAXIMOVA

*TDSHU, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: PhD katta o'qituvchi Sh. Kambarova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning global iqtisodiyotga qadam qo'yishi, mamlakat rivojlanishi yo'lida Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lishning qanchalik muhimligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning afzalliklari, rivojlanish istiqbollari va bu yo'ldagi barcha masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti (JST), global bozor, investitsiya, YIM hajmi, barqaror iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, telekommunikatsiya, samaradorlik, ilg'or texnologiya, xalqaro imkoniyatlar, eksport, rivojlanish, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, savdoni diversifikatsiya qilish.

Bugungi kunda Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish O'zbekistonning kun tartibidagi masalaga aylangan, davlatimiz rahbari mamlakatimiz o'z oldiga o'rta va uzoq muddatli rivojlanish bo'yicha qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqqan holda tashkilotga qo'shilish muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-60 son Farmoni bilan tasdiqlangan 97-maqsadda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish masalasi kiritilgandir.¹ Barchamizga ma‘lumki O‘zbekiston Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a‘zo bo‘lish bo‘yicha so‘rovnomani 1994-yilda jo‘natgan, lekin 2005-yilda JSTga a‘zo bo‘lish bo‘yicha harakatlar to‘htatildi, chunki hukumat o‘z-o‘zini ta‘minlash siyosatini olib bordi. Keyinchalik 2018-yilga kelib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirish uchun JSTga a‘zolik bo‘yicha harakatlar davom ettirilishini ta‘kidladi. 2023-yilgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar bilan solishtirganda, 2025-yilda JSTga a‘zolik bo‘yicha harakatlar tez sur‘atda o‘sdi.²

O‘zbekistonda JSTga a‘zolik bo‘yicha muhim hujjat - mamlakat qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risidagi Prezident farmoni e‘lon qilindi. Prezident farmoni, O‘zbekistonning JSTga a‘zolik masalasida qat‘iy irodasini namoyish etadi va mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini jadallashtirishga qaratilgan muhim qadamdir. U O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda mamlakatning jahon savdo tizimidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.³

Tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirishda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish yanada keng imkoniyatlar ochadi. Shu bois O‘zbekiston 2019 yildan bu xalqaro tuzilmaga a‘zolik jarayonini yangidan boshlagan edi. O‘tgan davrda bu maqsad sari dadil qadamlar qo‘yildi, deyiladi prezident matbuot xizmati xabarida. Yig‘ilishda O‘zbekiston rahbari Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish shartligini ta‘kidlab, buning iqtisodiy ahamiyatiga to‘xtaldi. “Kelgusi uch yilda tayyor mahsulot eksportini 2 baravar oshirishni reja qilganmiz. Bunga erishishning birdan bir yo‘li – Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishdir. Bu 164 ta davlat bilan adolatli savdo tizimini yo‘lga qo‘yish va barqaror bozorlarni yaratish imkonini beradi”, – dedi Shavkat Mirziyoyev.⁴

Asosiy qism: Hozirda Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a‘zo davlatlar global savdo va global YIMning 98%ini tashkil qiladi. JST bosh direktori Ngozi Okonjo-Iveala 2024-yildagi hisobotlari haqida ma‘lum qildi. Unga ko‘ra JSTga a‘zo davlatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari a‘zolikka ega bo‘lmagan davlatlar bilan taqqoslanganda o‘rtacha 1,5% ga o‘sgan. Dunyodagi eng katta YIM hajmini JSTga a‘zo davlatlar egallab turadi.⁵ (1-rasm).

¹ “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>


² Uzbekistan WTO Accession status: Uzbekistan https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouz_bekistan_e.htm

³ O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.06.2023 yildagi PQ-181-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6480161>

⁴ Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lishi shartligini ta‘kidladi. <https://kun.uz/96411500#!>

⁵ Hech bir davlat JSTga a‘zolikni siyosiy irodasiz amalga oshira olmagan — JST bosh direktori <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/07/wto/>

YIM hajmi eng katta bo'lgan davlatlar (yuqoridagi davlatlarning barchasi JSTga a'zo mamlakatlardir)



Manba: https://www.wto.org/english/news_e/spno_e/spno49_e.htm

JSTga a'zo bo'lish - Yangi O'zbekistonning qadimgi buyuk ipak yo'li davridagi mavqeyini tiklashga imkoniyat bo'la oladi. Bugunga qadar 24 ta davlat bilan a'zolik bo'yicha muzokaralar yakunlandi, a'zolikni jadallashtirish maqsadida sohalarida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. JST a'zolari o'zaro bozorga kirish bo'yicha kelishuvlar tuzadilar va bir-birlarining bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa, O'zbekiston uchun eksport darajasini oshiradi. JSTga a'zo davlatlar barcha a'zo mamlakatlar uchun bir xil boj stavkasini qo'yadi, natijada, xarajatlar tushishiga yordam beradi. Oziq-ovqat xavfsizligi va fitosanitariya choralari doir bitimlar O'zbekistondagi iste'molchilar huquqini himoya qiladi, xamda mahsulotlar sifatini oshiradi.¹ A'zo bo'lish uchun harakatlar natijasini barcha yangi qonun hujjatlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida barcha qonun hujjatlari takliflarni majburiy ekspertizadan o'tkazish mexanizmi joriy etilganidan ham bilib olishimiz mumkin. Hozirda xalqaro savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha O'zbekistonlik ekspertlarning salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va JSTning ko'magi bilan O'zbekistonda Savdo siyosati bo'yicha kompetensiya markazini tashkil etish masalalari o'rganilmoqda. Bu esa o'z navbatida yuqori iqtisodiy salohiyatli kadrlar yetishib chiqishi, yangi ish o'rinlari paydo bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston quruqlikdagi davlatdir va JSTning savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimi import-eksport bilan shug'ullanuvchilarga qulaylik yaratadi va boshqa davlat chegarasidan oson o'tish imkonini beradi. O'zbekiston importchilari mahsulotlarni istalgan davlatdan eng yaxshi narxda sotib olishlari mumkin, chunki kutilmagan boj o'sishlari bo'lmaydi va bozorlar birdaniga yopib qo'yilmaydi. Shuningdek, JSTga a'zolik chet ellik investitsiyalarni ko'payishida asosiy omil bo'lishi mumkin, JST statistikalariga ko'ra Qozog'iston Respublikasi 2015-yilda JSTga a'zolikdan so'ng chet ellik investitsiyalar hajmi ortishiga, ish o'rinlari

¹ Why the WTO matters for Uzbekistan (5 June 2024) https://www.wto.org/english/news_e/spno_e/spno49_e.htm

yaratish va iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirishga erishgan. 2017-2023 yillarda Qozog‘istonning AKT sohasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari yiliga o‘rtacha 18% ga oshgan, bu esa telekommunikatsiya narxlarining keskin kamayishiga va raqamli xizmatlar qamrovining oshishiga olib kelgan.¹

JSTga a‘zo bo‘lish mahalliy korxonalarni xalqaro raqobatga duchor bo‘lishlari sababli ularning mahsuldorligi va raqobatbardoshligini oshirishga undaydi. Bu ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kabi muhim tarmoqlarda innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishi mumkin. Bundan tashqari, Xalqaro savdo orqali o‘zbek korxonalari xorijdan ilg‘or texnologiyalar va ilg‘or tajribalardan foydalanishlari mumkin, bu esa ularga o‘z mahsulotlari, xizmatlari va biznes strategiyalarini yaxshilashga yordam beradi. JSTga a‘zo bo‘lish O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini rag‘batlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va modernizatsiyani rivojlantirish uchun strategik qadam bo‘ladi.²

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a‘zo bo‘lishi mamlakatimiz rivojlanishi, YIM hajmini oshirish, jahon bozoriga kirishda asosiy omildir, mamlakatimiz o‘zining eksport salohiyatini yanada oshirishni Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishda ko‘rmoqda. JST xalqaro savdo munosabatlari uchun qulay huquqiy tizimni taqdim eta oladigan cheksiz imkoniyatlar eshigi sanaladi. Mamlakatimizning JSTga a‘zo bo‘lishi tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini istiqboli aynan shu jarayonga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.06.2023 yildagi PQ-181-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6480161>
3. Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lishi shartligini ta’kidladi. <https://kun.uz/96411500#!>
4. Babadjanov S. “O‘zbekistonning WTOga qo‘shilishi: savdo siyosatining yangi bosqichi”. Yangi iqtisodiyot, (2022). 32(4), 56-68.
5. Abdurazakov R. “O‘zbekiston WTOga qo‘shilish jarayonida: yangi qonunlar va tartiblar”. Xalqaro huquq va iqtisodiyot, (2021). 16(4), 41-56.
6. Hech bir davlat JSTga a‘zolikni siyosiy irodasiz amalga oshira olmagan — JST bosh direktori <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/07/wto/>
7. https://www.wto.org/english/news_e/news25_e/acc_05nov25_193_e.htm
8. <https://statisticstimes.com/economy/gdp-indicators-2020.php>

¹ Why the WTO matters for Uzbekistan (5 June 2024) https://www.wto.org/english/news_e/spno_e/spno49_e.htm

² Dadabaev U. O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlari. (Monografiya) https://www.researchgate.net/publication/378735782_O‘zbekistonning_Jahon_savdo_tashkilotiga_a‘zo_bo‘lishning_o‘ziga_xos_xususiyatlari

XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT			
25.	<i>Nasiba RUSTAMOVA</i>	Ekoturizm xavfsizligi va ekologik qulayliklar: tog‘li hududlar infratuzilmasini rivojlantirish zarurati	97-100
26.	<i>Камила АББАСОВА</i>	Вопросы обеспечения региональной безопасности в отношениях узбекистана и турции	100-115
27.	<i>Gulshoda DO‘LANOVA</i>	O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar samarasi	115-122
28.	<i>Mohinur MAMADALIYEVA</i>	Hindiston va Pokiston munosabatlarida Kashmir muammosi	122-126
29.	<i>Safargul DAURANBEKOVA</i>	Koreya Respublikasi va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi nizosini hal etishda “Xalq diplomatiyasi”ning ahamiyati	127-134
30.	<i>Zarifa TOSHTEMIROVA</i>	“Al Jazeera” va “Al Arabiya” o‘rtasidagi axborot urushi	134-140
31.	<i>Sevinch RAXIMOVA</i>	O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish istiqbollari	140-144
32.	<i>Жахонгир ХУРСАНАБОДОВ</i>	Тенденции и перспективы внешнеэкономического взаимодействия Республики Узбекистан со странами Южной Азии	144-147
33.	<i>Nozigul TOJIMURODOVA</i>	Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning strategik ahamiyati	147-150